

SURXON TONGI

2026-yil
4-fevral
(chorshanba)
5-son
(17 989)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi

ISLOHOTLAR SAMARASI



u yerdagi ilg'or tajribalarni boshqa maktablar faoliyatiga tatbiq etish yuzasidan fikr almashildi. Direktorlar va mas'ullar tomonidan o'quvchilar uchun yanada qulay, xavfsiz va zamonaviy ta'lim muhitini yaratish, ta'lim sifatini oshirish va natijadorlikka erishish borasida taklif va mulohazalar bildirildi.

Ta'lim tizimidagi islohotlar faqat umumiy o'rta ta'lim bilan cheklanib qolayotgani yo'q, balki professional ta'lim

Bundan tashqari, Termiz shahrining "Manguzar" mahallasida Davlat investitsiya dasturi doirasida barpo etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab-internati qurilishi ham viloyat rahbari tomonidan o'rganildi. 504 o'rinni o'quv binosi, 222 o'rinni yotoqxona va zamonaviy sport zalini o'z ichiga olgan mazkur obyekt bo'yicha qurilish ishlari belgilangan

Yurtimiz, xususan viloyatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, yosh avlodga zamonaviy bilim va ko'nikmalar berish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, ta'lim muassasalarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, o'quvchilarning bilim-salohiyatini yuksaltirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

PREZIDENT TASHABBUSI



Ibrohim YOQUBOV,
O'zbekiston Ekologik partiyasi viloyat partiya tashkiloti Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi, Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati

3 TA TUMANGA 230 MILLIARD SO'M

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-sentyabrdagi "Alohida tuman (shahar) va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan iqtisodiy o'sishga yuqori turtki beruvchi ijtimoiy va infratuzilma obyektlari uchun Respublika byudjeti hisobidan viloyatimizdagi 3 ta tuman uchun 230 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilangan.

Jumladan, "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman" maqomi beriladigan Muzrabot tumaniga 100 milliard so'm, Qiziriq tumaniga 100 milliard so'm hamda Denov tumaniga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi PQ-132-sonli qaroriga asosan ajratilgan 70 milliard so'mga qo'shimcha, 2026-yilda 30 milliard so'm mablag' ajratiladi. Yuqoridagi qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida har bir tumandan ikkitanidan, ya'ni Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahallalarga aylantirish uchun ishsizlik darajasi — 4,0 foizdan yuqori, kambag'allik darajasi — 5 foizdan yuqori, kambag'al oilalar soni — 30 tadan ortiq bo'lgan 30 ta mahalla fuqarolar yig'ini tanlab olindi.

"Taraqqiyot va yetakchilik maskani" dasturining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi korxonalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- aholi uy-joylari hamda ijtimoiy soha obyektlarini yashil tamoyillar asosida qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash;
- ichimlik suvi va issiqlik ta'minotida resurs tejoychi infratuzilmani jadal rivojlantirish;
- ichki yo'llar, yoydalar yo'laklari va veloyo'laklar hamda aholi gavjum maskanlarni obod qilish yoki tashkil etish;
- ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirish.

"Taraqqiyot va yetakchilik maskani" dasturi doirasidagi loyihalarni zarur infratuzilma bilan ta'minlash uchun tegishli boshqarma va tuman hokimliklari bilan birgalikda manzilli dasturlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, viloyatda tanlab olingan 30 ta mahallada allaqachon loyihalarni amaliyotga tatbiq etish jarayoni boshlab yuborilgan.



TA'LIM TIZIMI TARAQQIYOT BOSQICHIDA

Bu borada Prezident maktablari o'quvchilarining yuqori bilim darajasi, xalqaro va respublika miqyosidagi yutuqlari, erishayotgan natijalari ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning amaliy samarasini yaqqol namoyon etayotgani ayni haqiqat.

Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz shahridagi Prezident maktabida bo'lib, ta'lim jarayonlari hamda o'quvchilar uchun yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Tashrif davomida xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimi yuqori baholanib, ushbu ilg'or tajribani viloyatdagi umumta'lim maktablarida bosqichma-bosqich joriy etish zarurligi ta'kidlandi. Shu munosabat bilan mas'ullarga birinchi bosqichda Termiz shahrida va Denov tumanida maktablarni tanlab olib, ularni xalqaro talablarga mos

ravishda tayyorlash hamda taqdimot qilish vazifalari yuklatildi.

Shuningdek, viloyat rahbari o'quvchilar va xorijdan jalb etilgan o'qituvchilar bilan suhbatlashib, yoshlarning kelgusidagi rejalari va oldiga qo'ygan maqsadlari bilan qiziqdi, faxriy mehmonlar kitobiga o'z tilaklarini yozib qoldirdi. Bu kabi muloqotlar yoshlarni yanada rag'batlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Berilgan topshiriqlar, yuklatilgan vazifalar o'z vaqtida bajarilsa, har qanday sohada o'zgarish, rivojlanish kuzatiladi. Yuqorida yuklatilgan vazifalar ijrosi o'laroq Termiz shahar hokimi boshchiligidagi shahardagi barcha umumta'lim maktablari direktorlari ishtirokida kengaytirilgan muhokama yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda maktab o'quvchilarining ta'lim sifati, davomat ko'rsatkichlari,

fanlarni o'zlashtirish darajasi hamda o'quv jarayonida uchrayotgan muammolar tanqidiy-tahliliy ruhdan atroflicha ko'rib chiqildi. Har bir maktab kesimida natijalar muhokama qilindi. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, nazorat tizimini kuchaytirish hamda o'quvchilarning bilim olishiga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish yuzasidan aniq vazifalar belgilab olindi. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish, o'qituvchilarning mas'uliyatini oshirish, o'quvchilar bilan individual ishlashni kuchaytirish masalalariga alohida urg'u berildi. Yoshlarning darslarga qiziqishini oshirish, iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan manzilli ishlash bo'yicha tavsiyalar berildi.

Muhokamalardan so'ng, shahar hokimi va ta'lim sohasi mutasaddilari Termiz shahridagi Prezident maktabida bo'lib,

muassasalarini ham qamrab olmoqda. Prezidentimiz qarorlari asosida texnikumlar faoliyatini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish, ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan samarali tizimlar joriy etilmoqda.

Viloyat hokimi Termiz shahridagi 2-son texnikumi hamda Termiz tumani texnikumida bo'lib, ularning moddiy-texnik bazasi, ta'lim jarayonlari, o'quvchilar va ishsiz fuqarolarni kasbga o'qitish ishlari bilan tanishdi. Texnikum rahbarlari tomonidan mavjud ta'lim yo'nalishlari, erishilgan natijalar va kelgusidagi rejalarni yuzasidan taqdimotlar o'tkazildi. Xususan, Termiz tumani texnikumini rekonstruksiya qilish va uni Surxondaryo ilg'or mahorat texnikumiga aylantirish bo'yicha loyiha takliflari muhokama qilindi.

"Surxon tongi"

MUHIY MAVZU

YER ICHIDA OLTIN BOR...

Ma'lumki, yer – umummilliy boyligimiz, shu sababli uni asrab avaylash, kelajak avlodga bus-butun holda yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Respublika Urbanizatsiya va uy-joy bozori barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmalari hamda Aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo'linmasi tomonidan bo'lib o'tgan matbuot anjumanida 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi. Bugungi kun holatiga ko'ra viloyatimizning ma'muriy chegarasidagi

umumiy yer maydoni 2 million 9911 gektar, shundan sug'oriladigan ekin yerlari 261 573 gektarni tashkil qiladi. Surxondaryo viloyatida ham davlat yerlarining o'z boshimchalik bilan egallab olinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida yer nazorati tadbirlari muntazam ravishda olib borilmoqda. Jumladan, Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va uning tuman bo'limlari tomonidan 2025-yilda yer nazorati tadbirlari davomida 3 142 ta holatda

266,5 gektar yer maydonlari o'z boshimchalik bilan egallab olinishi holatlari aniqlangan.

Mazkur yer bilan bog'liq qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish maqsadida ekin maydonlarini o'z boshimchalik bilan egallagan shaxslarga Kadastr agentligi tomonidan 3 142 ta yozma ko'rsatmalar yuborilib, o'tkazilgan profilaktik tadbirlar natijasida 2 238 tasi, ya'ni 189 gektardan iborat yer qonun buzilishi holatlari ixtiyoriy ravishda bartaraf etilishiga erishilgan. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalariga muvofiq 1 482 nafar shaxs ma'muriy jazoga tortilgan.

Shuningdek, 2024-yil 5-avgustdagi "O'z boshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonun ijrosini ta'minlash maqsadida Kadastr agentligi tomonidan mahallalarni xatlovdan o'tkazishning 2025-2026-yilgi reja-jadvali tasdiqlangan bo'lib, ushbu reja-jadvalga asosan viloyatimizda 2025-yilda 194 ta, 2026-yilda 146 ta mahallalarda xatlov ishlari olib borish rejalashtirilgan. Shunga ko'ra 102 ta mahallalar chegarasi tasdiqlanib "Uzka" dasturiga kiritilib, ushbu mahallalardagi jami 78 144 ta ko'chmas



mulklarda xatlov ishlari amalga oshirilgan. Xalqimizda: "Yer ichida oltin bor – qaziy bersang topasan!" degan maqol bor. Zero, har qarichi Vatan, har bir siqimi zar-u tilloga teng bo'lgan ona zaminimizni asrash tuyg'usi siz-u bizdan yurtga muhabbat, millatimizga nisbatan hurmat hissida bo'lishni talab etadi. Shunday ekan, xalq mulki bo'lgan ona zaminga faqat moddiy boylik deb emas, balki ma'naviy xazina sifatida ham qarashni o'rganaylik.

Xolmuhammad TOG'AYMURODOV

Bugun vohamizda, xususan Termiz tumanida bo'layotgan o'zgarishlar oddiy hodisa emas. Bu — yillar davomida orzu qilingan taraqqiyotning amaliy ko'rinishi, Yangi O'zbekiston g'oyalarning hayotga ko'chayotgan dalilidir.



Komila ABDULLAYEVA
Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashi kotibiyati bosh mutaxassisi, tuman Kengashi deputati

TARAQQIYOT — ONGDA, SHUKRDA, MAS'ULIYATDA...

Ammo achinarlisi shundaki, ayrim hollarda biz bu o'zgarishlarni odatiy holdek qabul qilamiz, boriga shukr qilish, qilinayotgan mehnat va mas'uliyatni anglash tuyg'usi esa yetarli darajada sezilmaydi. Holbuki, bugun Surxondaryo viloyatiga, xususan Termiz tumaniga qaratilayotgan e'tibor — tarixiy imkoniyatdir. Prezidentimiz tomonidan joriy yilni Surxondaryo uchun alohida e'tibor yili sifatida belgilash borasida bildirilgan fikrlar hududda olib borilayotgan ishlarining mazmun-mohiyatini yanada teranlashtirmoqda. Bu e'tibor qog'ozdagi shior emas, balki aniq loyihalik, real bunyodkorlik va xalq farovonligiga xizmat qilayotgan amaliy ishlar bilan namoyon bo'lmoqda. hurmatli Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan "Taraqqiyot va yetakchilik maskani" dasturi bugun Termiz tumanida yangi sahifani ochmoqda. Ushbu dastur doirasida qo'shimcha beshta mahalla tanlab olinib, ularda "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla" konsepsiyasi asosida keng ko'lamli ishlar boshlab yuborildi. Bu — shunchaki asfalt yotqizish yoki devorlarni bo'yash emas. Bu — mahallani yashash uchun qulay, bolalar uchun xavfsiz, keksalar uchun osoyishta, tadbirkor uchun imkoniyatga boy makonga aylantirishdir. Bu — kelajak avlod oldidagi mas'uliyatni bugundan ado etishdir. Ushbu ezgu tashabbus ijrosi doirasida viloyat hokimi Termiz tumanidagi infratuzilma loyihalarni joyida ko'zdan kechirmoqda. Yo'lbo'yi xonadonlarining shaharsozlik talablari asosida ta'mirlanishi, ko'chalar qiyofasining yangilanishi, mahallalardagi o'zgarishlar — bularning barchasi rahbarning masalasi kabinetdan turib emas, balki joyiga chiqib, aholvni ko'z bilan ko'rib baholayotganidan dalolatdir. O'rganishlar davomida elektr tarmoqlarini yangilash, ichimlik suvi quvurlarini tortish, ichki yo'llarni ta'mirlash, piyodalar yo'laklarini barpo etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha tahlil qilindi. Har bir loyiha bo'yicha "qanday qilinyapti?" dan ko'ra "nima uchun va kim uchun qilinyapti?" degan savol ustuvor bo'ldi. Viloyat hokimi tomonidan belgilab berilgan vazifalar faqat infratuzilma bilan cheklanib qolmadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish — bular taraqqiyotning eng muhim mezonlaridir. Chunki yo'l va bino odam uchun bo'ladi, odam esa ish va daromad bilan farovon yashaydi. Shu o'rinda bir haqiqatni tan olishimiz kerak: bugun qilinayotgan ishlar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Ularning ortida siyosiy iroda, rahbarning tashabbusi, mutasaddilarning mas'uliyati va minglab insonlarning mehnati turibdi. Ammo ba'zan jamiyatda "yana nimadir yetmayapti?" degan kayfiyat ustun kelib, bor ne'matni qadrlash, shukr qilish hissi yetarli darajada sezilmaydi. Aslida esa shukr — ko'z yumib maqtash emas, balki qilinayotgan yaxshilikni anglash, asrash va davom ettirish mas'uliyatidir. Agar bugungi o'zgarishlarni qadrlamasak, ertangi taraqqiyotning qadriga ham yetmasligimiz mumkin. Termiz tumanida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari Surxondaryo viloyatini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqmoqda. Viloyat hokimi boshchiligidagi olib borilayotgan tizimli va mas'uliyatli ishlar nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Endi navbat jamiyatda — har birimizda qilinayotgan ishlarni qadrlash, shukr qilish, asrash va o'z hissamizni qo'shish orqali bu taraqqiyotga munosib bo'lishdir. Chunki taraqqiyot faqat qurilishda emas, balki ongda, shukrda va mas'uliyatda davom etadi.

Ayniqsa, eksport salohiyatini oshirishda ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ana shu maqsadda Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi boshlig'i o'rinbosari F. Samatov tomonidan Surxondaryo viloyatidagi sanoat va eksportyor korxonalar faoliyatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha o'rganish ishlari olib borildi. Safar davomida korxonalar bilan yaqindan muloqot qilinib, ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan texnik va meyoriy masalalarga aniq yechimlar taklif etildi. Xususan, Termiz tumanida joylashgan "SURXON SENDVICH" MCHJ faoliyatini o'rganish jarayonida jamiyat tomonidan ishlab chiqarilayotgan 11 turdagi "bazalt tolas" mahsulotlarini sertifikatlashtirish masalasida yaqindan amaliy yordam ko'rsatildi. Natijada, mazkur mahsulotlar uchun muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirilib, korxonalar mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa korxonalar faoliyatini kengaytirish, eksport hajmini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun muhim zamin bo'ldi. Shu bilan birga, korxonalar qoshidagi sinov laboratoriyasida sinovlarni xalqaro standartlar asosida olib borish hamda laboratoriyaning texnik jihatdan malakaliligini baholash jarayonlarida ham amaliy ko'mak berish maqsadida Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasining viloyat bo'limidan mas'ul mutaxassislar birlashtirildi. Bu esa mahsulot sifati ustidan nazoratni kuchaytirish va ishonchli natijalarga erishishga xizmat qilmoqda. Kelgusida MCHJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan "bazalt tolas" mahsulotlarini xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli sotish maqsadida korxonada ISO 9001 xalqaro standartiga mos sifat menejmenti tizimini joriy etish bo'yicha ham aniq chora-tadbirlar belgilandi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun "Uz Test" DM Surxondaryo filiali mutaxassislari birlashtirilib, korxonaga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish ishlari boshlab yuborildi. Shuningdek, Qumqo'rg'on tumanida joylashgan "QUMTEX INVEST" MCHJ faoliyati ham e'tibordan chetda qolmadi. Korxonalar mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish maqsadida ISO 9001, OEKO-TEX hamda BSCI kabi xalqaro standartlarni joriy etish va sertifikatlashtirish bo'yicha Texnik jihatdan tartibga solish agentligining menejment tizimlarini joriy etishni muvofiqlashtirish bo'limi bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yildi. Bu esa yengil sanoat mahsulotlarining xalqaro talablarga mos holda ishlab chiqarilishiga xizmat qiladi. Jarqo'rg'on tumanida faoliyat yuritayotgan "SURHANCEMENT-INVEST" chet el korxonasi MCHJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan sement mahsulotlarini eksportga yo'naltirish borasida ham muhim kelishuvlar erishildi. Xususan, korxonalar qoshidagi sinov laboratoriyasining texnik jihatdan malakaliligini baholash va tasdiqlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish yuzasidan inspeksiya tomonidan amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha kelishib olindi. Umuman olganda, texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasining viloyat bo'limi tomonidan 2025-yil davomida profilaktik ishlar keng ko'lamda olib borildi. Jumladan, 600 ta tadbirkorlik subyektida tushuntirish va profilaktika tadbirlari o'tkazilib, xavf tahlillari asosida 960 ta ogohlantirish xatlari yuborildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida 723 ta korxonada qonunbuzilish holatlarining oldi olinib, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi. Bundan tashqari, korxonalar va tashkilotlarda foydalanilayotgan o'lchash vositalarini davriy qiyoslashdan o'tkazish, sinov laboratoriyalarining texnik malakaliligini tasdiqlash, mahsulotlar uchun muvofiqlik sertifikatlarini olish hamda me'yoriy hujjatlar asosida davriy sinovlarni tashkil etish bo'yicha o'nlab korxonalar amaliy yordam ko'rsatildi. Bu esa sanoat mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta'minlashda muhim natijalarga olib keldi. Xulosa qilib aytganda, sohada olib borilayotgan tizimli va manzilli ishlar sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi, mahsulotlar sifatining oshishi hamda eksport salohiyatining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, ushbu jarayonlar tadbirkorlik subyektlari uchun qulay muhit yaratib, hudud iqtisodiy taraqqiyotiga yangi sur'at bag'ishlamokda.

NAZORAT

XALQARO TALABLARGA MOS

SIFAT, STANDART VA ISHONCH..

Bugungi kunda sanoat mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lishi, avvalo, ularning sifati, xavfsizligi va xalqaro standartlarga muvofiqligi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasidagi rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.



Ayniqsa, eksport salohiyatini oshirishda ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ana shu maqsadda Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi boshlig'i o'rinbosari F. Samatov tomonidan Surxondaryo viloyatidagi sanoat va eksportyor korxonalar faoliyatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha o'rganish ishlari olib borildi. Safar davomida korxonalar bilan yaqindan muloqot qilinib, ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan texnik va meyoriy masalalarga aniq yechimlar taklif etildi. Xususan, Termiz tumanida joylashgan "SURXON SENDVICH" MCHJ faoliyatini o'rganish jarayonida jamiyat tomonidan ishlab chiqarilayotgan 11 turdagi "bazalt tolas" mahsulotlarini sertifikatlashtirish masalasida yaqindan amaliy yordam ko'rsatildi. Natijada, mazkur mahsulotlar uchun muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirilib, korxonalar mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa korxonalar faoliyatini kengaytirish, eksport hajmini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun muhim zamin bo'ldi. Shu bilan birga, korxonalar qoshidagi sinov laboratoriyasida sinovlarni xalqaro standartlar asosida olib borish hamda laboratoriyaning texnik jihatdan malakaliligini baholash jarayonlarida ham amaliy ko'mak berish maqsadida Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasining viloyat bo'limidan mas'ul mutaxassislar birlashtirildi. Bu esa mahsulot sifati ustidan nazoratni kuchaytirish va ishonchli natijalarga erishishga xizmat qilmoqda. Kelgusida MCHJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan "bazalt tolas" mahsulotlarini xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli sotish maqsadida korxonada ISO 9001 xalqaro standartiga mos sifat menejmenti tizimini joriy etish bo'yicha ham aniq chora-tadbirlar belgilandi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun "Uz Test" DM Surxondaryo filiali mutaxassislari birlashtirilib, korxonaga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish ishlari boshlab yuborildi. Shuningdek, Qumqo'rg'on tumanida joylashgan "QUMTEX INVEST" MCHJ faoliyati ham e'tibordan chetda qolmadi. Korxonalar mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish maqsadida ISO 9001, OEKO-TEX hamda BSCI kabi xalqaro standartlarni joriy etish va sertifikatlashtirish bo'yicha Texnik jihatdan tartibga solish agentligining menejment tizimlarini joriy etishni muvofiqlashtirish bo'limi bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yildi. Bu esa yengil sanoat mahsulotlarining xalqaro talablarga mos holda ishlab chiqarilishiga xizmat qiladi. Jarqo'rg'on tumanida faoliyat yuritayotgan "SURHANCEMENT-INVEST" chet el korxonasi MCHJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan sement mahsulotlarini eksportga yo'naltirish borasida ham muhim kelishuvlar erishildi. Xususan, korxonalar qoshidagi sinov laboratoriyasining texnik jihatdan malakaliligini baholash va tasdiqlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish yuzasidan inspeksiya tomonidan amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha kelishib olindi. Umuman olganda, texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasining viloyat bo'limi tomonidan 2025-yil davomida profilaktik ishlar keng ko'lamda olib borildi. Jumladan, 600 ta tadbirkorlik subyektida tushuntirish va profilaktika tadbirlari o'tkazilib, xavf tahlillari asosida 960 ta ogohlantirish xatlari yuborildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida 723 ta korxonada qonunbuzilish holatlarining oldi olinib, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi. Bundan tashqari, korxonalar va tashkilotlarda foydalanilayotgan o'lchash vositalarini davriy qiyoslashdan o'tkazish, sinov laboratoriyalarining texnik malakaliligini tasdiqlash, mahsulotlar uchun muvofiqlik sertifikatlarini olish hamda me'yoriy hujjatlar asosida davriy sinovlarni tashkil etish bo'yicha o'nlab korxonalar amaliy yordam ko'rsatildi. Bu esa sanoat mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta'minlashda muhim natijalarga olib keldi. Xulosa qilib aytganda, sohada olib borilayotgan tizimli va manzilli ishlar sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi, mahsulotlar sifatining oshishi hamda eksport salohiyatining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, ushbu jarayonlar tadbirkorlik subyektlari uchun qulay muhit yaratib, hudud iqtisodiy taraqqiyotiga yangi sur'at bag'ishlamokda.

S. ALLAYEVA

IFTIXOR

Bugun yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlar har qachongidan ham keng va sermazmun. Ta'lim, ilm-fan, tadbirkorlik, axborot texnologiyalari, madaniyat va sport sohalarida yoshlar uchun ochilayotgan eshiklar biz — yosh avlod qalbida cheksiz iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

KELAJAK — BIZNING QO'LMIZDA



Chunki bu imkoniyatlar bejiz emas, ular kelajakda Vatani ravnaqiga hissa qo'shadigan, yetuk kadrlar bo'lib yetishishimiz uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Bugun bir yosh sifatida shuni chuqur his qilaman: agar harakat qilsak, izlanishdan to'xtamasak, oldimizda hech qanday to'siq yo'q. Davlat grantlari, stipendiyalar, bepul va imtiyozli o'quv kurslari, zamonaviy texnoparklar, "Yoshlar daftari", "Bir million dasturchi", xorijda ta'lim olish imkoniyatlari — bularning barchasi bizga bo'lgan ishonch ifodasidir. Bu ishonchni oqlash esa bizning eng katta mas'uliyatimizdir. Yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalangan holda, bilimli, vatanparvar, zamonaviy fikrlaydigan inson bo'lib yetishish — bugun har bir yoshning eng ulug' maqsadi bo'lishi kerak. Chunki bugun o'qib, izlanib, kasb-hunar o'rganayotgan yosh ertaga Vatani koriga yaraydigan mutaxassis, fidoyi rahbar, halol tadbirkor yoki ilm yo'lida xizmat qiladigan olim bo'lib yetishadi. Bu esa nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki butun jamiyat taraqqiyotining garovidir. Men o'z tengdoshlarimga shuni aytmoqchiman: imkoniyatni kutib emas, uni qadrlab, undan foydalanib yashaylik. Vaqtini behuda sarflamay, bilim olishga, o'z ustimizda ishlashga, maqsad sariqat'iyat bilan intilaylik. Har bir o'qilgan kitob, har bir o'rganilgan ko'nikma — bu kelajagimizga qo'yilgan mustahkam poydevordir. Bugun yaratilayotgan sharoitlar ertangi bunyodkorlikning boshlanishidir. Keling, befarq bo'lmaylik, yurtimiz ishonchini oqlaylik. O'qib-uyqib, izlanib, mehnat qilib, Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan yoshlar bo'laylik. Chunki bu yurtning kelajagi — bizning qo'limizda, bizning bilimimiz va g'ayratimizdadir.

Shahrizoda SOBIROVA,
TISU talabasi

TADQIQOT

TURON TURKISTONDAN QADIMIYROQ

Turon va uning hududi haqidagi taxminlar juda ko'p. Biroq so'nggi yillarda arxeologiya fanida erishilgan yutuqlar bu mavzuga qayta murojaat qilish zarurati tug'dirmoqda. Avvalo, Turon deganda qaysi hudud tushuniladi?

Ba'zi olimlarning fikricha, Turon — bu Movarounnahrdir. Boshqa bir guruh olimlar Turonni Mozandaron deb hisoblaydi. Uchinchi guruh esa Turonni Movarounnahr va Xurosonning birgalikdagi hududi deb biladi. Eronlik tadqiqotchi Nodir o'zining "Turoniylar tarix nuqtayi nazaridan islomni qabul qilungacha" asarida Turon Sibirning Minusinsk havzasi ekanini ta'kidlovchi ko'plab fikrlarni keltiradi. Bunday qarashlarning sababi nimada? Bu, eng avvalo, hind-oriy qabilalarining harakati bilan bog'liq bo'lib, ular turli tarixiy davrlarda turli hududlarni egallab kelgan. Shu bois bu tarixiy masalaning harakat yo'lini ko'rib chiqish va tarixiy hududni aniqlash zarur. Miloddan avvalgi V ming yillik oxiri va IV ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoda ibtidoiy odamlar iste'molchilik hayot tarzidan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga o'ta boshladilar. Miloddan avvalgi IV ming yillik va III ming yillik boshlarida Markaziy Osiyo aholisi ikki ishlab chiqarish sohasiga bo'lindi: dehqonlar va chorvadorlar. Dehqonlar hozirgi Janubiy Turkiston hududida (Jaytun, Anov, Namozgoh madaniyatlar), Zarafshon vodiysida (Sarazmning Bosiy madaniyati) yashagan. Markaziy Osiyoning qolgan hududlarida esa chorvador qabilalar istiqomat qilgan. Miloddan avvalgi III ming yillik o'rtalarida Minusinsk havzasi qabilalari hayotida o'zgarishlar yuz berdi. Ular katta guruhlar holda Haftirud tomonga (hozirgi Qozog'iston va Markaziy Osiyo) ko'chib boshladilar. Bu qabilalar arxeologiya fanida Andronovo madaniyati qabilalari deb ataladi, chunki bu madaniyatga oid ilk topilmalar Andronovo qishlog'i yaqinidan topilgan. Markaziy Osiyoda dehqonchilik bilan bog'liq Sarazm-4, Safotepa, Zamonobobo, Chust madaniyatlari shakllanib, rivojlandi. Miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlarida ular Eron va Afg'oniston tomonga ko'chdilar. Bu hududlarda rivojlangan dehqonchilik madaniyati va tartibli hayot shakllari bilan qo'shilib, ilk davlat birlashmalarini vujudga keltirdilar. Ikkinchi masala — Turon va Turkiston o'rtasidagi munosabatdir. Bu masalani to'g'ri anglash uchun turklarning Markaziy Osiyoga kirib kelish yo'lini aniqlash zarur. Milodiy VI asr boshlarida Oltoy hududida Turon xoqonligi nomli qudratli davlat barpo etilib, istilochilik yurishlarini boshlab, Haftirud va Markaziy Osiyo tomonga yo'l oldi. Moxon hukmronligi davrida bu davlat chegarasi Boysundagiy Temir darvoza (Darvozay Ohanin)gacha yetdi. So'g'd va Toxariston uchun turoniylar urushlari boshlandi. Bir tomondan Turon xoqonligi, ikkinchi tomondan Sosoniylar Eroni bu hududlarni o'ziga bo'yusundirishga intildi va bunga erishdi. Natijada So'g'd va Toxariston ular o'rtasida bo'lib olindi. Shu tariqa Markaziy Osiyoda dastlabki turkiy kelib chiqishga ega aholi paydo bo'ldi. Tarixiy manbalarga ko'ra, ularning soni ko'p bo'lmagan. Turklarning Markaziy Osiyoga ikkinchi harakati Saljuqiylar va Qoraxoniylar istilosi bilan bog'liq. Bu ikki davlat tomonidan Markaziy Osiyo zabt etilgach, shaharlar atrofida asosan urush va talonchilik bilan shug'ullanuvchi harbiy lagerlar paydo bo'ldi. Turk qabilalarining uchinchi harakati Chingizxon bosqinlari davrida yuz berdi. Temuriylar hukmronligi davrida bu qabilalarning ayrimlari o'troqlashib, shaharlarga joylashdi. Shaharlarda turklar mahallalari vujudga keldi.

bilan bog'liq Sarazm-4, Safotepa, Zamonobobo, Chust madaniyatlari shakllanib, rivojlandi. Miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlarida ular Eron va Afg'oniston tomonga ko'chdilar. Bu hududlarda rivojlangan dehqonchilik madaniyati va tartibli hayot shakllari bilan qo'shilib, ilk davlat birlashmalarini vujudga keltirdilar. Ikkinchi masala — Turon va Turkiston o'rtasidagi munosabatdir. Bu masalani to'g'ri anglash uchun turklarning Markaziy Osiyoga kirib kelish yo'lini aniqlash zarur. Milodiy VI asr boshlarida Oltoy hududida Turon xoqonligi nomli qudratli davlat barpo etilib, istilochilik yurishlarini boshlab, Haftirud va Markaziy Osiyo tomonga yo'l oldi. Moxon hukmronligi davrida bu davlat chegarasi Boysundagiy Temir darvoza (Darvozay Ohanin)gacha yetdi. So'g'd va Toxariston uchun turoniylar urushlari boshlandi. Bir tomondan Turon xoqonligi, ikkinchi tomondan Sosoniylar Eroni bu hududlarni o'ziga bo'yusundirishga intildi va bunga erishdi. Natijada So'g'd va Toxariston ular o'rtasida bo'lib olindi. Shu tariqa Markaziy Osiyoda dastlabki turkiy kelib chiqishga ega aholi paydo bo'ldi. Tarixiy manbalarga ko'ra, ularning soni ko'p bo'lmagan. Turklarning Markaziy Osiyoga ikkinchi harakati Saljuqiylar va Qoraxoniylar istilosi bilan bog'liq. Bu ikki davlat tomonidan Markaziy Osiyo zabt etilgach, shaharlar atrofida asosan urush va talonchilik bilan shug'ullanuvchi harbiy lagerlar paydo bo'ldi. Turk qabilalarining uchinchi harakati Chingizxon bosqinlari davrida yuz berdi. Temuriylar hukmronligi davrida bu qabilalarning ayrimlari o'troqlashib, shaharlarga joylashdi. Shaharlarda turklar mahallalari vujudga keldi.

Bu jarayon Shayboniylar va Mang'itlar davrida yanada kuchayib, chorvachilik uchun qulay yerlar turk qabilalari va urug'lari o'rtasida taqsimlandi. Qishloq aholisi asosan mayda chorvachilik bilan shug'ullandi. Turkiy aslzodalar esa ko'proq davlat boshqaruvi bilan band bo'ldilar. Ba'zi shaharlarda turklar mahalliy aholini siqib chiqara boshladilar. Marv, Urganch va Turon shaharlarining turk aholisi majburan ko'chirilib, ularning o'rniga turkiy aholi zo'rlik bilan shaharlarga joylashtirildi. Bugungi kunda ham ayrim olimlar turklarni bu hududlarda juda qadimdan yashagan deb hisoblab, "Turon" tushunchasini "Turkiston" bilan almashtiradilar. Miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida bu qabilalarining bir qismi Eron va Afg'onistonning shimoliga ko'chib, yangi vatani Oriyona deb atadi, keyinchalik bu nom Eron shaklini oldi. Eronga ko'chgan guruh rivojlangan madaniyat bilan qorishib, dehqonchilik va shaharsozlik bilan shug'ullandi. Markaziy Osiyoda qolganlar esa chorvachilik va ko'chmanchi hayot tarzini davom ettirdi. Shu qabilalardan biri qudratli bo'lib, "Avesto"da Tura nomi bilan tilga olingan va bu hudud nomi ham shundan kelib chiqqan. Turon Turkistonga nisbatan ancha qadimiy tushunchadir. Aniqrog'i, bu ikki atama bir tomondan siyosiy sabablar, ikkinchi tomondan esa ushbu hududda shakllangan ikki etnos bilan bog'liq bo'lib, tarix taqozosi bilan ko'p hollarda bu yer aholisi umumiy taqdiri baham ko'rgan.

Baxtiyor JABBOROV,
Boysun tumanidagi 5-sonli umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Hayotlik yillarida
ezgu ishlari, mehr-
oqibati, samimiyligi
bilan ajralib turadigan
bu insonni katta
hurmat bilan eslashadi,
tilga olishadi. Asli
Samarqandning
Narpay tumanidan
bo'lgan bu inson

jarayonda chiniqdi,
toblendi, hurmat
qozondi.
Qumqo'rg'onga
ishga tayinlanganida
Abdunazar Azimov hayot
maktabini ozmi-ko'pmi
o'tagan mutaxassis
bo'lib yetishdi. Yangi
tuman, yangi ish, yangi

o'z talablariga barchani
birdek bo'ysindirdi.
Qishloq xo'jaligida tun-u
kun halovat bo'lmadi.
Yosh rahbar oromidan
kechdi. Mehnati,
tashabbuskorligi bilan
maqsadiga erishdi.
Viloyatda birinchi bo'lib
Germaniyaning "Klass

avtokorxonada tashkil qildi.
Yangi talablar,
majburiyatlar,
vazifalar....
Bularni osongina
bajarib ketish qiyin edi.
Ammo Abdunazar Azimov
o'zida kuch, g'ayrat topa
bildi, uddaladi, oqladi,
ishondi.

kombaynlari "Klass
Dominator" konserni
bilan hamkorlikni
yo'lga qo'yishdagi
faolligi uchun bir
guruh mutaxassislarini
davlat mukofotlariga
nomzodlari e'lon
qilindi. Ular orasida
Abdunazar Azimov



TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI QUYIDAGI VAKANT
(BO'SH) ISH O'RINLARI UCHUN
TANLOV E'LON QILADI

Termiz davlat
pedagogika instituti
quyidagi vakant
(bo'sh) ish o'rinlari
uchun kafedra mudiri,
professor, dotsent, katta
o'qituvchi va o'qituvchi
lavozimlariga tanlov e'lon
qiladi:

o'qituvchi 1 nafar;
**19. Fizika
kafedrası:** katta
o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar.

Professor lavozimini
egallash uchun tanlovda
fan nomzodi, falsafa
doktori (PhD) ilmiy
darajasiga yoki tegishli
mutaxassislik bo'yicha
xorijiy mamlakatlarining
unga tenglashtirilgan
boshqa ilmiy
darajalariga yoki dotsent
ilmiy unvoniga ega
bo'lgan shaxs kamida
5 yil ilmiy-pedagogik
ish stajiga ega bo'lish,
ushbu kafedraning
ta'lim yo'nalishlari
bo'yicha darsliklar va
o'quv qo'llanmalari
muallifi bo'lish sharti
bilan bir muddatga
ishtirok etishi mumkin.

Dotsent lavozimini
egallash uchun
tanlovda, qoidaga ko'ra,
dotsent ilmiy unvoniga,
katta ilmiy xodim yoki
fan nomzodi, falsafa
doktori (PhD), fan
doktori yoki fan doktori
(Doctor of Science) ilmiy
darajasiga, shuningdek
xorijiy mamlakatlarining
tegishli mutaxassislik
bo'yicha ularga
tenglashtirilgan boshqa
ilmiy darajalariga ega
bo'lgan shaxs ishtirok
etishi mumkin.

Kafedralarning vakant
professor, dotsent, katta
o'qituvchi, o'qituvchi
lavozimlariga
**1. Pedagogika
kafedrası:** katta
o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar;
**2. Amaliy
psixologiya kafedrası:**
katta o'qituvchi 1 nafar;
**3. Texnologiya va
geografiya kafedrası:**
dotsent 1 nafar, katta
o'qituvchi 1 nafar;
**4. Boshlang'ich
ta'lim kafedrası:**
dotsent 1 nafar, katta
o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar;
**5. Boshlang'ich
ta'limda matematika
va ona tili kafedrası:**
o'qituvchi 1 nafar;
**6. Maktabgacha
ta'lim kafedrası:**
o'qituvchi 1 nafar;
**7. Maktabgacha
ta'limda tarbiyaviy
tashkil etish va inklyu-
ziv ta'lim kafedrası:**
o'qituvchi 1 nafar;
**8. Matematika va
informatika kafedrası:**
dotsent 1 nafar, katta
o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar;
**9. Sport faoliyati va
chaqiriqqacha harbiy
ta'lim kafedrası:**
dotsent 1 nafar, katta
o'qituvchi 1 nafar;
10. Tarix kafedrası:
katta o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar;

**11. Falsafa,
ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi
kafedrası:** katta
o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar;
**12. Jismoniy
madaniyat kafedrası:**
dotsent 1 nafar, katta
o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar;
**13. O'zbek tili va
adabiyoti kafedrası:**
professor 1 nafar, katta
o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar;
**14. Rus tili va
adabiyoti kafedrası:**
katta o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar;
**15. Amaliy ingliz
tili kafedrası:** katta
o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar;
**16. Gumanitar
yo'nalishlarda xorijiy
tillar kafedrası:** katta
o'qituvchi 1 nafar,
o'qituvchi 1 nafar;
**17. Kimyo-biologiya
kafedrası:** dotsent
1 nafar, katta o'qituvchi
1 nafar;
**18. Tasviriy san'at
kafedrası:** katta

**Tanlovda ishtirok
etish uchun
nomzodlar quyidagi
hujjatlar topshirishi
shart**

— Rektor nomiga
ariza;
— Pasport nusxasi;
— Ma'lumotnoma
(obyektivka);
— So'rovnomasi;
— Oliy ma'lumot
to'g'risidagi diplomlar
nusxasi (ilovasi);
— Ilmiy daraja, ilmiy
unvon, shuningdek, ilmiy
ishlar va ixtirolar mavjud
bo'lgan taqdirda, ularga
tegishli diplomlar,
attestatlar nusxalari;
— Ilmiy ishlar ro'yxati;
— Malaka oshirganligi
to'g'risidagi guvohnomalar.

IZOH: hujjatlar
gazetaga e'lon berilgan
kundan boshlab bir
oy muddatda qabul
qilinadi.

Manzil: Termiz
tumani, "Yangi
O'zbekiston" mahallasi
1-a uy. Termiz davlat
pedagogika instituti
rahbariyati binosi,
institut Kengashi kotibi
Telefon: 90 375-16-64

Vatan o'z farzandlarini matonati, sadoqati, shijoati va beorom
qalblari uchun ardoqlaydi. Abdunazar Azimov — bu nom
qumqo'rg'onliklar uchun g'oyatda qadrlil.

SURXONNING SAMARQANDLIK O'G'LI

Surxondaryoda nom
qoldirib ishladi, el
nazariga tushdi.
Oliygo'y yo'flanmasi
bilan Denovning
Hazarbog' xo'jaligiga
texnika muhandisligi
bo'yicha ishga kirgan
yosh mutaxassis qisqa
vaqt ichida ishchanligi
bilan el nazariga
tushdi. Bu paytda
Hazarbog' dovru'gi
butun mamlakatga
yoyilgan xo'jaliklardan
biri sifatida tanilgan edi.
Bu mutaxassis shunday

reja, yangi talablar
Azimov uchun oson
kechmadi. Dastavval,
qishloq xo'jalik texnikalar
birlashmasiga rahbarlik
qildi. Yangi boshliq
eng avval xo'jalikni
yangi texnikalar bilan
boyitish uchun yelib
yugurdi. Jamoaga
ishchan, tajribali
mutaxassislar, chilangar,
kombaynchilar,
traktorchilar,
payvandchilar jalb
qilindi. Sobiq ittifoq
paxta yakkahokimligi

Dominator" konserni
bilan hamkorlikda texnika
parkini ochdi.
G'alla o'rish
kombaynlari texnik
mutaxassislari
o'quvini tashkil qildi.
Kombayn operatorlari
Qumqo'rg'onida
malaka oshirdi. Ko'p
o'tmay, Abdunazar
Azimov yuqori rahbarlik
idoralari tavsiyasi bilan
tumanda viloyat qishloq
xo'jaligi sohasiga xizmat
ko'rsatuvchi XATP—
xo'jalik hisobidagi yirik

— Men 40 yildan ortiq
rahbarlik lavozimlarida
ishladim, — deydi
mehnat faxriysi O'ral
Xudoyorov. — Sohamiz
yaqin bo'lgani sabab turli
tadbirlar, yig'ilishlarda
birga qatnashar edik.
Samimiy, kamtar,
ishchan bu insonni
yaxshi eslayman. Bir gal
viloyatdagi yig'ilishlardan
birida viloyatimizning
o'sha paytlardagi birinchi
rahbari Jo'ra Noraliyev
taklifi bilan g'alla o'rish

ham bor edi. Ro'yxat
o'qib eshittirilayotganda
Azimov uzr so'rab:
"Jo'ra aka, e'tiboringiz
uchun rahmat. Men
bu mukofotni tun-u
kun ishlayotgan
oddiy chilangar Safar
Abdullalovga berishlikni
iltimos qilardim. Nasib
qilsa, bizga ham mukofot
berilar", dedi. Zal qarsak
bilan olqishladi.
Ammo nasib qilmagan
ekan. Azimov hayotdan
erta ketdi. Biz Abdunazar
Azimov bilan ko'p yillar

birga ishladik. Oddiy
texnik mutaxassis
Boybo'ri Xoliqov aka-
ukadek Abdunazar aka
bilan oqibatli, inoq edi.
Kimning to'yi-tashvishi
bo'lsa, yelkama-yelka
turardi, saxovatli edi.

**Salim
MARDONAQULOV,
Bahodir
AZIZOV,
jurnalist
Qumqo'rg'on
tumani**

BEPARVOLIK
KECHIRILMAYDI

Bugungi kunda
viloyatimizda yangi bino
va inshootlar qurilishi,
ko'p qavatli turar joylar barpo
etilishi hamda mavjud aholi yashash
maskanlarini rekonstruksiya
qilish ishlari keng ko'lamda olib
borilmoqda.

Shahar-u qishloqlarda yangidan qad rostlayotgan
zamonaviy binolarni ko'rib, albatta, kishining
ko'ngli-yu ko'zi quvnaidi. Bundayin bunyodkorlik
ishlari yurtimiz taraqqiyoti va aholi farovonligining
yaqqol ifodasidir.
Biroq qurilish sohasi doimo turli xavf-xatarlar bilan
bog'liq bo'lib, ular orasida yong'in xavfsizligi eng
muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.
Chunki qurilish maydonlarida birgina e'tiborsizlik,
qoidalarga amal qilmashlik yoki mas'uliyatsizlik katta
moddiy zarar, eng achinarlisi esa inson hayoti va
sog'lig'iga jiddiy tahdid solishi mumkin.



Shu bois har bir qurilish obyektida yong'in
xavfsizligini ta'minlash davlat talablari va amaldagi
qoidalar asosida qat'iy amalga oshirilishi shart.
Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar
boshqarmasi yong'in xavfsizligini ta'minlash
maqsadida qurilish tashkilotlari rahbarlari, mas'ullar
va ishchilarni yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy
rioya etishga chaqiradi. Qurilish maydonlarida
qo'lbola va nosoz elektr isitish moslamalaridan
foydalanmaslik, ruxsat etilmagan joylarda, ayniqsa,
qurilish vagonlarida chekishga
yo'l qo'yimaslik lozim.
Elektr tarmoqlarining saqlagichlariga "qo'lbola"
simlar ulab ishlatmaslik, kislorod ballonlarini
bo'yoqlar, yog'och va boshqa yonuvchan materiallar
bilan birga saqlamaslik talab etiladi.
Eng muhimi, qurilish maydonlarida bolalar
o'ynashiga yo'l qo'yimaslik shart. Shuningdek, davlat
standartidan o'tkazilmagan qurilish materiallaridan

foydalanmaslik lozim. Har bir xodim yong'in
xavfsizligi qoidalarini va favqulodda holatlarda
evakuatsiya tartibini mukammal bilishi, qurilish
obyektlari esa har 3-6 oyda kamida bir marotaba
texnik tekshiruvdan o'tkazilishi lozim. Qurilish
maydonlari va qurilish vagonlarida yong'in
qarshi mas'ul shaxslar tayinlanib, yuqoridagi
talablarga rioya etilishi nafaqat moddiy zararni
kamaytiradi, balki eng avvalo, inson hayoti va
sog'lig'ini asrab qoladi.
Barcha qurilish obyektlarida yong'in xavfsizligi
qoidalariga qat'iy rioya qilish — bu shunchaki talab
emas, balki hayotiy muhim vazifadir. Beparvolik
fojiga, mas'uliyat esa xavfsiz va barqaror
bunyodkorlikka olib kelishini unutmaylik.

**M.AVAZOV,
viloyat FVB SHSPB boshlig'i,
kapitan**

**Giyohvand moddalarni
iste'mol qilish insonni
zalolatga, salomatlikdan
ayrilish va jinoyatga yetaklashi
hammamizga ma'lum. Zahri
qotilni tarqatish, sotish esa katta
jinoyat.**

NOWVOYNING
HOLIGA VOY

Asad Qarshiyev (ism-familiyalari o'zgartirilgan) 44 yoshni qarshilagan, 4 nafar farzandni otasi, topish-tutishi ham yomon emas. Ancha yillardan buyon novvoylik bilan shug'ullanib kelardi. Lekin halol mehnat va peshona teri evaziga topayotgan daromad ko'ziga oz ko'rindimi, oson va mo'may pul topmoqchi bo'ldi.
Nega deysizmi? Asad 2024-yilning bahor faslida o'zi istiqomat qilib kelgan Denov tumanidagi uyining tomorqasida "marixuana" giyohvandlik vositasi urug'ini ekip, shundan o'sib chiqqan ikki tup ko'chatini parvarishlaydi. Og'uni yetishtirganidan so'ng, uni o'rib olib, keyinchalik sotishni maqsad qiladi. Oradan bir necha oy o'tib, saqlab kelgan og'ularini jami 231 dona gugurt qutisiga qadoqlab qo'yadi.
Tekzor xodimlar tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbir davomida A.Qarshiyevning Termiz shahridagi xonadoni ko'zdan kechirilganida, u saqlab kelayotgan giyohvandlik vositasining barchasi topilib, tegishli tartibda rasmiylashtirib olinadi.
Albatta, hech bir jinoyat jazosiz qolmaydi. Asad Qarshiyev Jinoyat ishlari bo'yicha Termiz shahar sudi tomonidan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan aybdor deb topib, 10 yil-u 6 oyga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Bu uning qilmishlariga chek qo'ydi.

ODIL NORMAHMATOV,
Surxondaryo viloyat sudi raisi o'rinbosari,
jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati raisi
Denov tumanida faoliyat yuritayotgan "BEHRUZ-FAYZ" oilaviy korxonasiya tegishli muhr va tamg'a yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

KUN MAVZUSI **ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARI: NAZORAT VA NATIJA**



Bu borada O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan tizimli va manzilli ishlar olib borilmoqda. Xususan, Qo'mitaning Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasiga 2025-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami 3 767 ta murojaat kelib tushib, belgilangan tartibda o'rganib chiqildi. Mazkur murojaatlarning 95 foizi joriy hal etilib, natijada 4,0 milliard so'm miqdoridagi mablag' iste'molchilar hamda tadbirkorlik subyektlari foydasiga qayta hisob-kitob qilinishi ta'minlandi.
Tahlillar shuni ko'rsatadiki, murojaatlarning 74 foizi uy-joy, kommunal xizmatlar va transport, 17 foizi savdo va umumiy ovqatlanish, 8 foizi ijtimoiy soha, qolgan 1 foizi esa reklama va boshqa yo'nalishlarga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar aholining kundalik ehtiyojlarini bilan bog'liq sohalarida huquqiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi.
Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish yo'nalishida o'tgan yil davomida 24 ta soha va yo'nalish bo'yicha o'rganish ishlari amalga oshirilib, natijada nomuayyan doiradagi 111 mingga yaqin iste'molchining huquqlari tiklandi. Ushbu o'rganishlar yakunida 6,3 milliard so'm dan ortiq mablag'lar iste'molchilar foydasiga qayta hisob-kitob qilinishi ta'minlandi. Shuningdek, iste'molchilarning

Bugungi kunda iste'molchilar huquqlarini ishonchli himoya qilish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

manfaatlarini himoya qilish maqsadida sud organlariga 20 dan ortiq da'vo arizalari kiritildi. Bundan tashqari, vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda Qo'mita tomonidan tasdiqlangan grafik asosida 67 turdagi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, ichimliklar, sut va bolalar ozuqasi, go'sht mahsulotlari, ko'mir yonilg'isi, qora metall buyumlar va boshqa mahsulotlar bo'yicha nazorat xaridlari o'tkazildi. Natijada 36 turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining yaroqlilik muddati o'tganligi aniqlanib, ushbu mahsulotlarni realizatsiya qilgan subyektlarga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi hamda sudlarga taqdim etildi.
Shuningdek, tibbiyot muassasalarida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yuzasidan olib borilgan o'rganishlar davomida ayrim tibbiy asbob-uskunalar o'lchash vositalari belgilangan tartibda qiyoslash ko'rigidan o'tkazilmaganligi oqibatida 5 730 nafar fuqaroga sifatsiz tibbiy xizmat ko'rsatilgani aniqlanib, tegishli choralar ko'ridi.
Reklama qonunchiligiga rioya etilishi ustidan olib borilgan monitoringlar ham tizimli ravishda amalga

oshirildi. Jumladan, hududiy boshqarma tomonidan 2 mingdan ortiq tashqi reklama obyektlari o'rganilib, 1 300 dan ortiq holatda qonunbuzilish va kamchiliklar aniqlandi. Ularning aksariyati joyida bartaraf etilib, 40 ta korxonada va jismoniy shaxslarga nisbatan qonuniy choralar qo'llanildi.
Xulosa qilib aytganda, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan olib borilayotgan ishlar aholining huquqiy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, bozorda adolatli raqobat muhitini ta'minlash va sifatsiz xizmat hamda mahsulotlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida iste'molchilar ishonchini mustahkamlash va hududda sog'lom iqtisodiy muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda.
Husniddin YULDASHEV,
Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

МАРТАБАНИ ТАРК ЭТИБ, КОМИТЛИККА ЭРИШГАН ШОИР

Ўзбек адабиётининг забардаст сиймоларидан бири, зуллисонайн шоир, адиб, фақиҳ, нақшбандия тариқатининг йирик намояндаси Сўфи Аллоҳёрнинг туғилган йили ҳақида халқимиз орасида турли-туман фикрлар билдирилган.



MOZIY BILAN YUZLASHIB

Илмий тадқиқотлар ва таъжирларда қайд этилишича, аллома 1644 йили Самарқанддаги Каттакўрғон бекилига қарашли Минглар қишлоғида Аллоҳқули (Темирёр) хонадонида таваллуд топган. Бошланғич таълимотни мазкур ҳудудда олган. 12 ёшгача шу ерда истиқомат қилган. Болалик даврида ақл-идроки тез, зеҳни ўткир, илмга муҳаббати кучли бўлганлиги сабабли кейинчалик буюк аллома, мутафаккир ва маърифат пешвосига айланган тасодиф эмас, албатта.

Йигитлик чоғларида Сўфи Аллоҳёр илм излаб ва ҳаёт тажрибасини ошириш мақсадида Бухорога йўл олган. Даврининг йирик сийосий ва маънавий маркази саналган Бухорода у зотнинг салоҳияти ва тadbиркорлиги эътибордан четда қолмаган. Шу боис Бухоро ҳукмдори Абдулазизхон томонидан унинг зиммасига масъулиятли вазифа – бож маҳкамасида туралик лавозими юклатилган.

Сўфи Аллоҳёр ўзига топширилган вазифини сидқидилдан, пок ният билан адо этишга интилади. Баъзан адолатни таъминлаш ва қонун-қоидаларни мустаҳкамлаш мақсадида муайян қатъият ва қаттиққўлликка йўл қўйгани ҳақида манбаларда қайд этилади. Ана шу ҳолат айрим вазиятларда халқнинг норозилигига ҳам сабаб бўлгани маълум. Бироқ шунга қарамай, бу давр Сўфи Аллоҳёрнинг ҳаётдаги муҳим тажриба даври бўлиб, ундаги бошқарув маҳорати, адолат тушунчаси ва инсоний фазилатлари айнан шу жараҳда шаклланигани таъкидланади.

Сўфи Аллоҳёрнинг дунёвий ишларни тарқатиб, тарикат йўлига киришига олиб келган воқеа манбаларда тафсилотлари билан зикр этилган. Ривоятларга кўра, у Бухорода божхона хизматидаги кириб, бир неча йил давомида маълум даражада қаттиққўл ва хатто шафқатсиз амалдор сифатида ном қозонган. Шу даврда Шайх Ҳабибуллоҳнинг муридларидан бири савдо юки билан Бухорога кириб келганида, Аллоҳёр томонидан қаттиқ таъкиб ва калтаклиниши унинг тақдирини ҳал қилувчи бурилиш бўлгани айтилади. Муриднинг ҳол-аҳолини эшитган Шайх Ҳабибуллоҳ дуо қилгани ва ана шу дуо ҳамда руҳий таъсир туяғида Аллоҳёрнинг қалбида илоҳий бедорлик пайдо бўлгани ривоят қилинади.

Бу воқеадан сўнг, Аллоҳёр қалбидаги тафаккур ўзгаради ва у Нақшбандия тариқатининг машҳур шайхи – Шайх Ҳабибуллоҳнинг ҳузурига бориб, тўлиқ тавба қилади ҳамда тариқатга қўшилиш истагини билдиради. Шайх уни қабул қилади ва шундан сўнг Сўфи Аллоҳёр мансаб, мартаба, дунёвий манфаатларни барчасини тарқ этиб, тасаввуф йўлига бутун вужуди билан кириб кетади.

У зот ўн йил давомида Бухородаги Жўйбор шайхлари силсиласининг намояндаси – Шайх Ҳабибуллоҳ мадрасасида таълим олади, унинг қўлида тасаввуф илмини пухта ўзлаштиради. Тариқатнинг турли руҳий машқлари, одо ва талабларини сидқидилдан бажариб, шайхлик мартабасига кўтарилди, валий-уллоҳ – Аллоҳнинг дўсти, каромат соҳиби сифатида танилади ва аҳли сунна ақидаларининг йирик ҳимоятчиларидан бирига айланади. Сўфи Аллоҳёр ўз асарларида таъкидлашича, у Шайх Ҳабибуллоҳдан ташқари яна бир қатор улуг устозлар: Сўфи Наврўз Бухорий ва Хўжа Мўмин каби уламолардан ҳам дарс олган. Шу тариқа у шаръий илмларни, хусусан, тафсири, ҳадис, фикҳ ва тасаввуфни мукаммал эгаллаган; араб ва форс тилларини эса юксак даражада билиб, кейинчалик ўзининг машҳур асарларини ана шу тилларда ҳам ижод этган.

Шунингдек, манбаларда Сўфи Аллоҳёрнинг айнан шу даврларда замонасининг оташнафас, ишқий ва ирфоний руҳ билан сугорилган шеърят соҳиби – Бобораҳим Машраб (1650–1711) билан яқин мулоқотда бўлгани ҳам ривоят қилинади. Икки буюк софдил шайх ва шоирнинг учрашувлари, суҳбатлари ва руҳий мушоадалари уларнинг ҳар иккаласининг ҳам маънавий дунёсида муайян из қолдиргани айтади. Машрабнинг ирфоний муҳаббатга асосланган ғоялари ва Аллоҳёрнинг ақидавий барқарорликка йўналтирилган таълимоти ўзaro мулоҳазалар орқали янада бойигани турли тазкира ва ривоятларда эслатиб ўтилади.

Манбаларда таъкидлашича, Сўфи Аллоҳёр ўзбек ва форс тилларида бир қатор нодир, илмий ва ирфоний аҳамиятга молик асарлар яратган. Улар орасида куйидагилар алоҳида ўрин тутади:

- 1. “Маслакул муттақийн” (“Тақводорлар маслағи”)** — бу асар алломанинг шоҳ асари сифатида эътироф этилган. Форс тилида ёзилган ушбу китобда тақво эгалари йўли, ахлоқий-ирфоний масалалар, инсоннинг руҳий камолга интилиши каби мавзулар чуқур баён қилинган. Сўфи Аллоҳёрнинг илмий-педагогик қарашлари айнан шу асарда тўла намойён бўлади.
- 2. “Муродул орифийн” (“Орифлар муроди”)** — мазмуни билан “орифлар

орзуси” ёхуд “ирфон эгалари мақсади”ни англадиган бу асар ҳам форс тилида таълиф этилган. У ўн беш фасдан иборат бўлиб, ўттизга яқин рисола асосида ёзилган. Китобда тасаввуф илмига оид кенг қамровли масалалар: нафс тарбияси, руҳий машқлар, зикр одоблари, шайх-мурид муносабатлари каби мавзулар шарҳланган. Асарнинг кўплаб кўлэмна нусхалари мавжуд. Шундан бири Ўзбекистон мусулмонлари идораси кутубхонасида 1716 рақам билан сақланмоқда.

3. “Махзанул мутийъийн” (“Итоаткорлар хазинаси”, “Итоаткорлар захираси”) — форс тилида ёзилган бу асар икки асосий бўлимдан иборат. Биринчи бўлимда ақидавий масалалар, инсоннинг эътиқоди, ислоний қарашлар пойдевори ҳақида сўз юритилган. Иккинчи бўлимда эса фикҳий масалалар, амалий ибодатлар, одо-ахлоқ қоидалари баён қилинади. Китобнинг ўзига хослиги шундаки, у ақидда ва фикҳни бир асарда уйғун тарзда қамраб олган.

4. “Саботул ожизийн” (“Ожизлар саботи”, “Ожизлар матонати”) — ушбу асар ақоид илмига бағишланган бўлиб, туркий тилда назмий услубда ёзилган. Муаллиф бу асарни “Маслакул муттақийн”-дан кейин ёзган. Форс тилида ёзилган “Маслакул муттақийн” кенг омма томонидан катта муҳаббат билан кутиб олинган, Сўфи Аллоҳёрнинг яқинлари ва шогирдлари уни она тилида ҳам ёзиб беришини сўрайдилар. Ҳақ таолога таваккул қилиб, у зот бу илтимосни қабул қилди ва “Саботул ожизийн”ни қисқа вақтда ижод этди. Асар халқ орасида шиддат билан тарқалган, мадрасаларда дарслик сифатида ўқитилган ва асарлар давомида мусулмонлар учун муҳим маънавий дастуриламал вазифасини ўтаб келган.

“Саботул ожизийн” асари ўз пайдо бўлган даврида кенг китобхонлар оммаси томонидан катта мамнуният билан қабул қилинган. Унинг оддий халқ тилида ҳам ёдлаб юрилиши, дастурхон атрафида, масжид ва мадрасаларда оҳанг қилиб қилиб ўқиши – асарнинг халқ қалбида қандай чуқур ўрин эгаллаганини яққол кўрсатади.

Мазкур асарнинг халқ орасида тез оммалашгани, унинг мазмуни оддий, равшон ва таъсирли тили билан бирга, ақидавий масалаларни жонли, тушунарли тарзда баён этгани билан ҳам боғлиқдир. “Саботул ожизийн” юзлаб йиллар давомида,

аниқроғи, уч юз йилдан орттиқ вақт мобайнида мактаб ва мадрасаларда дарслик сифатида ўқитиб келинган. У толиби илм учун кўлланма, тақво ва одо-ахлоқ исотаганлар учун эса маънавий дастуриламал вазифасини ўтаган.

Бу асарнинг нуфузи фақат Мовароуннаҳр билан чеклиниб қолмаган. “Саботул ожизийн” Покистон, Ҳиндистон, Эрон, Ироқ, Афғонистон, Тартистон, Саудия Арабистони, Миср, Туркия, Хитой, Венгрия ва Россия каби кўплаб давлатларда нашр этилган.

Асарнинг бу қадар кенг ҳудудларда тарқалиши унинг илмий ва руҳий қимматини янада оширади. Шу билан бирга, унинг тарқалиши мотуридия ақидда мактабининг мазкур юртларда мустаҳкамланиши ва оммалашуви ҳам хизмат қилганини айтиш ўринлидир. Баъзи тадқиқотчилар ва адабиётшунос олимлар Сўфи Аллоҳёр меросини ўрганад экан, унга тегишли деб қайд этилган яна бир неча асарларга эътибор қаратадилар. Жумладан, “Нажотул толибийн”, “Фавзун нажот” китоблари ҳамда “Мевалар мунозараси” номли манзума айрим манбаларда Сўфи Аллоҳёр қаламига мансуб экани айтилган. Гарчи бу асарларнинг муаллифлиги ҳақида баҳслар мавжуд бўлса-да, уларнинг услубий хусусиятлари, мазмун-моҳияти ва тасаввуфий руҳи Сўфи Аллоҳёр ижодида яқинлиги боис, бир қатор олимлар уларни шу улуг зот номи билан боғлайдилар.

Октябрь инқилобига қадар Сўфи Аллоҳёрнинг асарлари форсий ва туркий тилда сўзлашувчи ҳар бир мўмин ва мусулмон учун азиз ва муқаддас маънавий мерос сифатида қадрланиб келган. Хар бир хонадон, ҳар бир мадраса ва илмий муҳида бу асарлар эҳтиром билан ўқилиб, ёш авлод улар орқали ақидда, одо ва тасаввуф таълимотини ўзлаштирган. Шунга мувофиқ, асарларга арабий, форсий ва туркий тилларда шарҳлар ёзилган, мазмунни яхшироқ англаш учун махсус луғат ва кўланмалар тузилган. Афсуски, собиқ шўролар давридаги мафкуравий босим ва диний меросга нисбатан салбий сиёсат натижасида Сўфи Аллоҳёрнинг бой илмий-ирфоний мероси таъқиқга учради. У зот ҳақида асоссиз гап-сўзлар, сохта айбловлар тарқатилди, асарлари танқид қилинди ва уларга нисбатан муносабат сунъий равишда ёмонлаштирилди. Натижада, узоқ йиллар давомида бу улуг алломанинг номи ва мероси ҳақиқатдан қадру қимматидан узоқлаштирилди. Қайта қуриш ва ошқора-

лик даври, айниса, Ватанимиз мустақилликка эришганидан сўнг Сўфи Аллоҳёрнинг нурли мероси яна ўз қадрига қайта бошлади. Диний-маънавий меросга бўлган муносабат тубдан ўзгарди, асарлар давомида халқ қалбида яшаб келган, аммо тақиқлар оқибатида чекланган бу буюк зотнинг асарлари қайта тарғиб этилди. Унинг бир қатор нодир китоблари нашр этилди, янги тадқиқотлар, илмий таҳлиллар, шарҳ ва изоҳлар ёзилди.

Сўфи Аллоҳёрнинг ҳаёти ва ижодиётини ўрганиш йўлида кўплаб соғломқли ишлар амалга оширилди. Уламоларимиз томонидан асарлари қайта ўрганилиб, шарҳланди, зиёлилар, муҳаққиқлар ва адабиётшунослар томонидан янги илмий изланишлар олиб борилди. Натижада, халқимиз яна бу асарларни севиб мутолаа қиладиган, улардан маънавий озуқа оладиган бўлди. Сўфи Аллоҳёр мероси яна бир бор ўзининг ҳақиқий қиймати, ирфоний кудрати ва ахлоқий аҳамияти билан юрт аҳли учун маънавий манбага айланди.

Сўфи Аллоҳёр нафақат буюк шоир ва тариқат шайхи, балки йирик фақиҳ, шарият илмларининг маҳоратли олим ва самарали тарғиботчиси. Унинг барча асарлари инсонни ҳақиқий ислонни тушунишга, дину диёнатга садоқат билан йўналтиришга қаратилган. Муаллиф асарлари орқали одо-ахлоқ, ахлоқий тарбия ва фикҳий билимларни оддий ва тушунарли тарзда баён қилиб, ҳар бир инсонни соф тасаввуф йўлига қадам қўйишга чақиради.

Шу билан бирга, Сўфи Аллоҳёр ижоди нафақат ақлий тафаккур, балки қалб ва руҳни поклаш, инсонни маънавий етуқликка эриштириш йўлида ҳам хизмат қилади. Унинг асарлари ҳар даврда ҳам кишини маънавий бойликка, ибодат ва ахлоқ йўлида баркамолликка чорлайдиган устозлик мақомида қадрланган. Сўфи Аллоҳёр оят ва ҳадис маъноларини шеърый услубда китобхонга етказди, уларнинг қалб торини чертади, руҳиятини кўтаради. Умрининг асосий қисмини ҳақ йўлига, ирфоний билимлар тарғибига ва тасаввуф таълимотини кенг халқ оммасига сингдиришга сафарбар этган Сўфи Аллоҳёр зулм, зўравонлик, тақабурлик, судхўрлик, вафосизлик, лоқайдлик, тамағирлик, танбаллик ва беҳунарлик орқали эришаётган ғам-ғусса каби иллатларни қатъий равишда қоралаб, уларга нисбатан панд-насиҳатлар беради. Шоир кишиларни кибру ҳаводан воз кечиб, ҳамжихатлик ва биродарлик-

да яшашга, дўстлик ва садоқатда бир-бирига наф етказишга, бир-бирдан баҳраманд бўлишга даъват этади. У инсонга ақли етадиган ишни қилиши, қўлдан келадиган юмушни адо этиши, ваъдасига вафодорлиги ва аҳдида садоқатли бўлиши зарурлигини уқтиради.

Сўфи Аллоҳёр инсонга бажара олмайдиган, эғлай билмайдиган ишга қўл урмаслик, берган ваъдасини бузмаслик, дунёга ортиқча муҳаббат қўймаслик кераклигини эслатиб ўтади. Чунки бу ҳолат инсонни ҳар икки оламда ҳам бадном ва эл ичида шармисор қилиши мумкин. Унинг панд-насиҳатлари нафақат шахсий ахлоқни тарбиялашга, балки халқ орасида ҳамжихатлик, инсонлики ва соф тасаввуф ғояларини мустаҳкамлашга қаратилгани боис, Сўфи Аллоҳёрнинг мероси ҳар доим баркамол ва маънавий йўл кўрсатувчи йўлнамо сифатида қадрланади.

Сўфи Аллоҳёр кишиларни билим эгаллашга, касб-хунар ўрганишга даъват этар экан, уларни халол меҳнат билан, пешона терини тўкиб, ризку рўзини топиб ейишга, пок яшашга ундайди. У ҳар бир инсонга бировлар миннати ва жабрини тортмаслик, сабр ва қаноат билан яшаш, ҳаётда тамағирлик ва беқарорликка йўл қўймадлики таъкидлайди.

Сўфи Аллоҳёрнинг бу таълимотлари нафақат шахсий ахлоқни тарбиялаш, балки халқ орасида адолатли, меҳнаткаш ва инсоний фазилатларга эга авлодни шакллантиришга хизмат қилади.

Сўфи Аллоҳёрнинг шеърлари китобхонни ҳалоллик, поклик, ростгўйлик, меҳнатсеварлик ва одамхушликка чақиради. У ёшлиқдан илм ва маърифат эгаллаш, садоқатли, қаноатли ва ризоли бўлиш, таъзим ва тавозеъ билан яшаш, иймон ва эътиқодда мустаҳкам туриш каби фазилатларга тарбиялайди. Шоирнинг асарлари шу билан бирга ғайриинсоний ва ғайришаарий ишлардан парҳез қилиш, ҳаётни маънавий тоза йўлда ўтказишга даъват этади. Бу фазилатлар инсоннинг комиллиги ва маънавий етуқлигининг асосий белгиларидир.

Сўфи Аллоҳёрнинг шеърый мероси инсондўстлик ва ислоний маърифатпарварлик ғоялари билан тўла бўлиб, китобхоннинг қалбини юксалтиришга хизмат қилади. Бобомиз динимиз равнақи йўлида фидокорона меҳнат қилган, ўз қимматли асарлари орқали мотуридия таълимотининг Мовароуннаҳр ва ундан ташқари бошқа юртларга кенг

тарқалишига хизмат қилган буюк уламолардан биридир. Унинг илмий ва маънавий мероси халқимиз ва мусулмон олами учун нафақат қадрли, балки маърифат ва тасаввуф йўлининг баркамол дастури сифатида хизмат қилади.

Сўфи Аллоҳёр Каттакўрғонда таваллуд топган бўлса-да, узоқ йиллар Бухорода истиқомат қилган, кейинчалик Каттакўрғон ва Гузорда яшаган. У оила қуриб, фарзандларининг тарбиясига алоҳида эътибор қаратган, минглаб шогирдлар тарбиялаб, халқнинг маънавий-маърифий оқсалишига муносиб ҳисса қўшган. Умрининг охирида Сурхондарё вилоятининг Олтинсой туманига қарашли Катта Вахшвор қишлоғига келиб жойлашган. Бу ерда ўзбек мумтоз адабиёти ва тасаввуф илми анъаналарининг давомчиси сифатида ўзига хос мактаб яратган.

Сўфи Аллоҳёр 1721 (айрим ривоятларда 1724) йили ушбу қишлоқда оламдан ўтган. Ҳозирда унинг кўплаб авлодлари ҳам шу жойда яшаб келмоқда. Ерли аҳоли бу жойни авлиённинг қадимжоси деб билган ва унинг яқинида кичик масжид бунёд этган. Натижада бу масжид ва атрофи тарихий зиёратгоҳга айланган ҳамда халқ орасида муқаддас ва қадрли макон сифатида эъзозланади.

Оятуллоҳ АЙНИДДИН, Имом Термизий ўрта махсус ислом таълим муассасаси мударриси

ТАҲРИРИЯТ УЗОҲИ: Олтинсой туманидаги Катта Вахшвор қишлоғида Сўфи Аллоҳёр ҳазратлари мангу кўнмин топган зиёратгоҳ бугун Сурхондарё вилояти ҳокими Улугбек Қосимовнинг ташаббуси билан мукаммал таъмирланиб, зиёратчилар ва чет эллик туристлар учун муносиб шароит яратилди. Ушбу муқаддас қадимжоси келиб-кетувчиларнинг сони кундан-кунга ошиб бораётир. Мазкур зиёратгоҳ нафақат инсонларни маънавий баркамолликка чорлайди, балки ёш авлодни ватанпарварлик ва аждодларга муносиб инсонлар бўлиб камол топишига замин қаратиши билан аҳамиятли.

SURXON TONGI
va
ЗАРЯ СУРХАНА
gazetalari tahririyati

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi

Tahrir Hay'ati
Abduraim CHORIYEV (hay'at raisi)
Ilhom SAPAROV,
Ibrohim YQUBOV,
Murodbek DAVLATOV,
Iqroniddin AYNIDDINOV,
Dinara EGAMBERDIYEVA,
Xurshid KARSHIYEV

Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR
Salohiddin NORQOBILLOV

MAS'UL MUHARRIR
Sayyora ALLAYEVA
NAVATCHI MUHARRIR
Xurshid KARSHIYEV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

TELEFONLAR:
76 224-23-85,
76 224-23-80,
76 224-23-87

Qog'oz bichimi A-2,
2 bosma taboq
Nashr indeksi: 6 500
Bosishga topshirildi — 09:00
Bosildi — 11:00
Adadi 6 790 nusxa.
Buyurtma G-

MANZILIMIZ:
Termiz shahri,
Shukrona ko'chasi, 19-A uy

BOSMAXONA MANZILI:
Termiz shahri,
Shukrona ko'chasi, 19-A uy

Gazeta "Surxon tongi" va "Zarya Suxhana" gazetalari tahririyati bosmaxonasida chop etildi.